

**KONFERENSIYALAR.UZ**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**IYUL, 2025**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiylar.uz>



**KONFERENSIYALAR.UZ**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

**TOSHKENT-2025**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild,  
5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 22-iyul

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

#### **Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Muxsinova Musallamxon*

- TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI  
(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) ..... 5-7

### TEXNIKA FANLARI

*Baxriddinov Nodirbek*

- RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN  
QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSH VA YEVROPA TAJRIBASI ..... 8-11

### TARIX FANLARI

*To'ychiyeva Dilnoza*

- ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) ..... 12-19

*Horov Shukrat*

- ISTORICHESKIJ ANALIZ FORMIROVANIE EKOLOGICHESKOJ KULTURY SREDI  
MOLODEZHI ..... 20-25

*Bazarbayeva Nilufar*

- O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA ..... 26-29

*Nazirov Mirjalol*

- FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA  
HUDUDIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 30-32

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

- KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLAHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI ..... 33-37

*Kaiyabekov Parahat*

- COVERSHENSTVOWANIE UPRAVLENIA AUTOMOBILNYMI TRANSPORTNYMI  
USLUGAMI V UZBEKİSTANE ..... 38-44

*Ibragimov Jakhongir*

- SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSIYALARINI JORIY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM  
O'ZGARISHLARI TA'SIRINI BAHOLASH ..... 45-48

### FALSAFA FANLARI

*Mamadiyarova Malika*

- GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI ..... 49-51

*Ro'ziyev Maqsud*

- ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI ..... 52-55

### FILOLOGIYA FANLARI

*Tursinbaev Ilham*

- BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI ..... 56-60

*Pulatjonova Muxtasar*

- HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER  
CORPUS ANALYSIS ..... 61-63

*Abdulxayeva Nodirabegim*  
TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION ..... 64-66

*Absalomova Feruza*  
KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSİYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:  
IJTIMOIJ-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST ..... 67-71

### **YURIDIK FANLARI**

*Tog'onova Jemala*  
MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI ..... 72-76

*Shomurodov Sanjar*  
SUN'YIY INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK  
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENTSIYA ZARURATI ..... 77-80

*Qilichev Nosirbek*  
SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT  
SIFATIDA ..... 81-84

*Xolmo'minova Barchinoy*  
DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI ..... 85-90

### **PEDAGOGIKA FANLARI**

*Таджисбаева Альбина*  
РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ  
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК ..... 91-96

*Собирова Гулибарно*  
ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ ..... 97-101

### **TIBBIYOT FANLARI**

*Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza*  
ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK  
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI ..... 102-104

### **PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Kurbanov Munis*  
KASBIY IDENTIFIKATSİYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 105-107

## FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA HUDUDIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI

**Nazirov Mirjalol Baxodirjon o'g'li**  
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi  
E-mail: [nazirovmirjalol60@gmail.com](mailto:nazirovmirjalol60@gmail.com)  
Tel: +998911070307  
ORCID - 0000-0001-6877-5513

**Annotatsiya.** Mazkur maqlolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan migratsion siyosatning Farg'ona vodiysidagi ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda demografik o'zgarishlar, harbiy-ma'muriy choralar, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar retrospektiv tahlil asosida o'r ganilgan. Maqola tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida yozilgan bo'lib, migratsion jarayonlarning mintaqaviy o'ziga xos jihatlarini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, kolonial siyosat, Farg'ona vodiysi, Rossiya imperiyasi, demografik o'zgarishlar, siyosiy nazorat.

## RETROSPECTIVE ANALYSIS OF MIGRATION PROCESSES IN FERGANA REGION AND IMPACT ON REGIONAL DEMOGRAPHIC PROCESSES

**Nazirov Mirjalol Bakhodirjon oglu**  
Senior Lecturer, Fergana State University

**Annotation.** This article examines the impact of the Russian Empire's migration policy in the Fergana region during the late 19th and early 20th centuries. Through a retrospective analysis, it investigates demographic changes, military-administrative actions, and socio-economic consequences. The study is based on historical sources and contemporary research.

**Key words:** migration, colonial policy, Fergana Valley, Russian Empire, demographic changes, political control.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-15>

### KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi mintaqada tub siyosiy, ijtimoiy va demografik o'zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi imperiyaning mustamlakachilik siyosatida muhim geostrategik hudud sifatida ko'rildi. Rossianing Turkistondagi ko'chirish siyosati bu yerda demografik muvozanatni o'zgartirish, harbiy va ma'muriy nazoratni kuchaytirish, iqtisodiy manfaatlarni ko'zlab o'tkazilgan siyosiy harakat edi. Tadqiqotimizda bu siyosatning aynan Farg'ona viloyatidagi namoyon bo'lish shakllari va oqibatlari chuqur tahlil qilinadi.

Rossiya imperiyasining Farg'ona vodiysiga bo'lgan e'tibori, birinchi navbatda, bu hududning tabiiy resurslarga boyligi, sug'orma dehqonchilik uchun qulayligi, shuningdek, harbiy-strategik joylashuvi bilan bog'liq edi. Natijada, bu yerga Rossianing ichki guberniyalaridan kelgan aholi to'lqini joylashtirila boshlandi. Bu jarayon ko'p hollarda mahalliy aholi yerlarining tortib olinishi, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimining shakllanishi bilan kechdi.

Ko'chirilgan aholining joylashuvi, ularning ijtimoiy tarkibi, davlat tomonidan berilgan imtiyozlar, harbiy posyolkalar (harbiy aholi punktlari) va yangi qishloqlar tashkil etilishi bu siyosatning asosiy jihatlari bo'lib, ular Farg'ona vodiysining tarixiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir

ko'rsatdi. Shu sababli, maqolada aynan ushbu tarixiy jarayonlar retrospektiv yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqotda tarixiy-muqoyasaviy (har xil davr va joydagi hodisalarini solishtirish), retrospektiv (orqaga qarab tahlil qilish), statistik, tarixiy-manbashunoslik va kontent tahlili metodlaridan foydalanilgan. Asosiy manbalarni Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy va fuqaroviylar boshqaruv hujjatlari, demografik ro'yxatlar, zamonaviy tarixchilarining ilmiy ishlari tashkil qiladi. Tadqiqotda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy arxiv, xorijiy olimlar (masalan, A. Morrison, A. Khalid, S. Becker) va mahalliy tarixchilarining (N. To'raqulov, Z. Turdimov, A. Yusupov va b.) ishlaridan foydalanilgan. Farg'ona vodiysidagi migrantsion jarayonlar XIX asr oxirlarida boshlangan va XX asr boshlariga kelib tizimli xarakter kasb etgan. Bu davrda Rossiyadan kelgan ko'chmanchilar soni ortib, ular uchun alohida yer maydonlari ajratilgan. 1897-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, Farg'ona vodiysida rus va ukrain ko'chmanchilar soni sezilarli darajada ortgan. Ko'chmanchilar joylashtirilgan hududlarda harbiy posyolkalar tashkil etilgan bo'lib, ular orqali imperiya mintaqani nazorat ostiga olishga harakat qilgan. Rossiya hukumati tomonidan ko'chmanchilarga berilgan soliq imtiyozlari, yer ajratish, xo'jalik yuritish uchun texnika bilan ta'minlash kabi choralar ularning bu hududda barqaror yashab qolishiga xizmat qilgan. Boshqa tomonidan, bu jarayon mahalliy aholi, ayniqsa, qishloq aholisi uchun yer tanqisligi, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy noroziliklarga olib kelgan. Ayrim hollarda etnik qarama-qarshiliklar ham kuzatilgan. Farg'ona vodiysidagi migrantsion jarayonlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining ajralmas qismi bo'lgan. Ushbu siyosat mintaqaning iqtisodiy resurslarini egallash, siyosiy va harbiy jihatdan nazorat o'rnatish maqsadida olib borilgan. Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu migrantsion siyosat natijasida Farg'ona vodiysining demografik tarkibi o'zgargan, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi yangilangan, lekin shu bilan birga mahalliy aholining manfaatlariga zid holatlar ham yuzaga kelgan.

Zamonaviy tadqiqotlar ushbu tarixiy jarayonlarni yanada chuqurroq tahlil etishga, migrantsion siyosatning hozirgi zamon siyosiy-huquqiy tajribasi bilan solishtirib o'rganishga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, bu davrga oid arxiv materiallari, xususan, rus tilidagi hujjatlarning o'rganilishi tarixiy tafsilotlarni to'liqroq anglashga imkon beradi.

## XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan amalgalashishiga qarab oshirilgan migrantsion siyosat Farg'ona vodiysi tarixida muhim iz qoldirgan. Bu siyosat orqali imperiya o'zining siyosiy, harbiy va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlashga harakat qilgan bo'lsada, mahalliy aholi uchun bu jarayon muvozanatni buzgan va yangi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirgan. Ushbu maqola orqali tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida bu jarayonlar har tomonlama tahlil qilinib, Farg'ona vodiysining kolonial davr tarixidagi o'rni ochib berildi.

Kelajakdagagi tadqiqotlar migrantsion siyosatning mintaqaviy tafovutlarini o'rganish, ko'chmanchilarining avlodlariga ta'sirini aniqlash va bu tajribani hozirgi demografik siyosat bilan bog'lash imkonini beradi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Muminov N. Turkiston o'lkasi mustamlakachilik davrida. – Toshkent: Fan, 1991. – 248 b.
2. G'ofurov O. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 390 b.
3. Shukurov E. Turkistondagi rus migrantsiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – 256 b.

4. Nazarov M. XIX asrda Farg'ona vodiysida demografik jarayonlar. – Andijon: Andijon universiteti nashriyoti, 2021. – 182 b.
5. Quronov D. Mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy-ruhiy oqibatlari. // Ijtimoiy fanlar, 2020, №2. – B. 34–40.
6. Yo'ldoshev M. Farg'ona vodiysida rus aholisi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. – Namangan: Ilm ziyo, 2022. – 211 b.
7. Saidov A. Turkistonda harbiy-mustamlaka siyosati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020. – 198 b.
8. Ernazarov A. Imperiya siyosati va migratsiya. – Samarqand: Ma'rifat, 2023. – 167 b.
9. Kappeler A. The Russian Empire: A Multiethnic History. – Harlow: Longman, 2001. – p. 172–198.
10. Sunderland W. Taming the Wild Field: Colonization and Empire on the Russian Steppe. – Ithaca: Cornell University Press, 2004. – 296 p.
11. Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868–1910: A Comparison with British India. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 320 p.
12. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 398 p.
13. Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London: Routledge, 2004. – 240 p.
14. M.Nazirov "Yevropadan ko'chrib keltrilgan aholining Farg'ona vodiysiga joylashtrilishi (Qo'qon xonligi tugatilishi arafasida)" -F.: QDPI xabarlari 2025. – 778
15. M.Nazirov "Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisiningiqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga t"'siri" ..: FarDU ilmiy xabarlari 2025. – 257
16. M.Nazirov "Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tubxalqlarining siyosi, fuqarolik ahvoliga ta'siri" ..: FarDU ilmiy xabarlari 2025. – 304

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 22-iyul

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
V Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari to'plami.  
1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 22-iyul

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.